


I. XIZMATLAR

2025- yil 1-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 13 749 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

2025- yil 1- aprel holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 11 314 tasi yoki 82,3 foizi kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi.

2025- yil yanvar- mart oylarida **bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari** bo'yicha hajmi 5 129,9 mlrd. so'mni yoki 2024- yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish 113,1 foizni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlari

	Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Axoli jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so'm)	O'sish sur'ati, % da	shundan,		
					Kichik biznes xajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jami	5 129,9	113,1	4 676,3	111,1	2 241,7	114,4	43,7
Navoiy sh.	1 516,6	110,4	9 070,3	107,0	701,9	154,6	46,3
Zarafshon sh.	395,8	114,0	4 364,3	111,4	239,1	91,9	60,4


	Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sinh sur‘ati, % da	Axoli jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so‘m)	O‘sinh sur‘ati, % da	shundan,		
					Kichik biznes xajmi (mlrd. so‘m)	O‘sinh sur‘ati, % da	Ulushi, % da
G‘ozg‘on sh.	12,3	112,6	1 305,7	11,4	7,9	136,4	64,4
Karmana t.	450,7	111,4	3 171,8	109,1	233,5	72,7	51,8
Konimex t.	115,1	111,3	3 093,3	111,9	92,3	144,4	80,2
Qiziltepa t.	393,2	110,1	2 384,6	108,3	277,6	110,3	70,6
Navbahor t.	226,2	110,8	1 841,7	109,1	165,7	108,2	73,3
Nurota t.	146,5	110,1	1 611,3	108,6	122,6	99,1	83,7
Tomdi t.	58,1	110,0	3 795,2	111,5	52,7	151,8	90,8
Uchquduq t.	130,5	110,3	3 278,8	109,2	104,3	116,7	79,9
Xatirchi t.	293,1	110,6	1 352,7	108,9	244,2	117,3	83,3



Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari

	<i>mld. so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>yakunga nisbatan, % da</i>
Jami xizmatlar	5 129,9	113,1	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmati	185,8	118,9	3,6
moliyaviy xizmatlar	892,7	109,4	17,4
transport xizmati	727,1	116,6	14,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>			
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 336,4	114,7	26,1
savdo xizmatlari	968,5	109,2	18,9
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	112,7	159,8	2,2
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	156,1	103,1	3,0
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	71,7	107,7	1,4
ijara xizmatlari	51,6	103,2	1,0
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	78,8	109,6	1,5
boshqa shaxsiy xizmatlar	123,4	108,6	2,4
Me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	215,5	140,7	4,2
boshqa turdagi xizmatlar	209,4	101,2	4,1

Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘shish sur‘atlari (2024- yil yanvar-martiga nisbatan, % da)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (159,8), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (118,9%), transport xizmatlari (116,6%), moliyaviy xizmatlar (109,4 %), savdo xizmatlari (109,2 %) va shaxsiy xizmatlar (108,6 %)da o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

Xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi

(2025- yil yanvar- mart oylari, % da)



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush yashash va ovqatlanish xizmatlari (26,1 %), savdo (18,9 %), moliyaviy (17,4 %), transport (14,2 %) hamda me'morchilik sohasidagi xizmatlar (4,2 %)ga to'g'ri keldi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

	ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Jami xizmatlar	4 676,3	111,1
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmati	169,4	115,5
moliyaviy xizmatlar	813,7	101,0
transport xizmati	662,8	111,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>		
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 218,2	116,5
savdo xizmatlari	882,9	103,1

	<i>ming so‘m</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	102,7	154,0
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	142,3	111,9
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	65,4	105,0
ijara xizmatlari	47,1	115,1
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	71,9	106,6
boshqa shaxsiy xizmatlar	112,5	113,1
me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	196,5	157,0
boshqa turdagi xizmatlar	190,9	111,4

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar 2025- yil yanvar-mart oylarida 4 676,3 ming so‘mni yoki 2024- yilning yanvar- martiga nisbatan o‘sish sur‘ati 111,1 foizni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘atlari, % da



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari (1 218,2 ming so‘m), savdo xizmatlari (882,9 ming so‘m) hamda moliyaviy xizmatlar (813,7 ming so‘m) yuqori ulushni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (154,0 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (116,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,5 %), shaxsiy xizmatlar (113, %), transport xizmatlari (111,9 %), savdo xizmatlari (103,1 %) va moliyaviy xizmatlar (101,0 %) da o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so'm




Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Navoiy shahri yetakchi o'rinni egalladi. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 9 070,3 ming so'mga yetdi. Zarafshon shahar (4 364,3 ming so'm) va Karmana (3 171,8 ming so'm) tumanida ham boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'paygan. G'ozg'on shahar (1 305,7 ming so'm), Xatirchi (1 352,7 ming so'm) va Nurota (1 611,3 ming so'm) tumanlarida esa boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi kamligini ko'rishimiz mumkin.

Xizmatlar hajmida katta ulushga ega bo'lgan sohalar


<i>T/r</i>	<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
	Jami – xizmatlar	5 129,9	113,1	100,0
1.	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	229,2	105,8	26,1
	shundan:			
	Yashash bo'yicha xizmatlar	20,6	128,7	9,0
	Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar etkazish bo'yicha xizmatlar	208,6	103,9	91,0
2.	Savdo xizmatlari	922,6	109,2	18,9
	shundan:			
	shu jumladan:avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar;			
	avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	105,7	110,4	11,5
	Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)	81,5	105,7	8,8
	Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar	735,4	109,4	79,7
3.	Moliyaviy xizmatlar	892,7	109,4	17,4
	shundan:			
	Sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	859,6	109,8	96,3
	Sug'urtalash, qayta sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlar, majburiy ijtimoiy sug'urtalash bo'yicha xizmatlardan tashqari	22,7	87,1	2,5
	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar	10,4	159,2	1,2
4.	Transport xizmatlari	727,1	116,6	14,2
	shundan:			
	Quruqlikdagi transport xizmatlari va quvurlar orqali yetkazib berish bo'yicha xizmatlar	650,0	111,4	89,4
	Omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari	73,3	186,0	10,1
	Pochta va kurerlik xizmatlari	3,9	78,2	0,5
5.	Boshqalar	2587,5	106,1	50,4

2025- yil yanvar- mart oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.


2025- yil yanvar- mart oylarida savdo xizmatlarining tarkibi



Huddi shunday, savdo xizmatlarning hajmi 968,5 mlrd. soʻmga yetib, koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 18,9 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining 11,5 foizini, avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (ularni taʼmirlash xizmatlarini qoʻshgan holda) xizmatlari esa 8,8 foizni, ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) 79,7 foizni tashkil etdi.

2025-yil yanvar- mart oylarida taʼlim sohasidagi xizmatlar dinamikasi



“Taʼlim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmogʻi va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi taʼlimni va turli kasblarga oʻrgatishni oʻz ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan taʼlim, shuningdek, kattalar uchun taʼlim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), taʼlim sohasida yordamchi faoliyat va shunga oʻxshash boshqalar kiradi.

Taʼlim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy oʻqitish shaklini ham hisobga olgan holda koʻrsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.


2025-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida yashash va oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar mavjud bo'lib, 2025-yilning yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – 114,7 foiz.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

2025-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




2025- yil yanvar- mart oylarida ijara xizmatlari


2025- yilning yanvar-mart oylarida ijara xizmatlari hajmi 51,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida 2025- yil yanvar-mart oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi 103,2 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar- mart oylarida ijara xizmatlari dinamikasi



2025- yil yanvar- mart oylarida koʻchmas mulk bilan bogʻliq xizmatlar




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.


2025- yil yanvar- mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'atlari



2025- yil yanvar- mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm



2025 - yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 1,4 %ni tashkil etdi.